



ADABIY TA'LIMDA O'QUV TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Rasulova Gulbaxor Kerimbayevna,

Toshkent amaliy fanlar universiteti "Pedagogika" kafedrası

pedagogika fanlari doktori (DSc).

nozimarasulova15@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1787>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 26

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

adabiy ta'lim, o'quv topshiriq'i, savol-topshiriq, mashq, an'anaviy topshiriq, pragmatik topshiriq, badiiy matn, mustaqil faoliyat, tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur, adabiy-nutqiy ko'nikma, kompetensiya, Blum taksonomiyasi, tahlil, sintez, baholash

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada adabiy ta'limda o'quv topshiriqlarining o'rni, mazmun-mohiyati, turlari va tavsifiy jihatlarini tahlil qilinadi. O'quv topshiriqlarining an'anaviy va pragmatik turlari, ularning mashqlardan farqli xususiyatlari hamda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, topshiriqlarni tuzishda o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, badiiy matnni o'qib tushunish, tahlil qilish, munosabat bildirish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Adabiy ta'limda o'quv topshiriqlarini Blum taksonomiyasi asosida tizimlashtirishning metodik imkoniyatlari ochib beriladi. Maqolada topshiriqlardan samarali foydalanish adabiy-nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim vositasi ekanligi asoslanadi. Tadqiqotda o'quv topshiriqlarining faqat bilimni mustahkamlovchi vosita emas, balki o'quvchining badiiy matn bilan faol ishlashini ta'minlovchi metodik mexanizm sifatidagi imkoniyatlari ochib beriladi. O'quv topshiriqlarini mazmun, maqsad, kognitiv murakkablik darajasi va bajarish usuliga ko'ra tizimlashtirish orqali adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, matnni dalillar asosida talqin qilishi, estetik munosabat bildirishi hamda ijodiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslanadi. Shuningdek, topshiriqlarni oddiy reproduktiv faoliyatdan muammoli, tahliliy va ijodiy faoliyatga bosqichma-bosqich yo'naltirishning didaktik samaradorligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari adabiyot darslari uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda maqsadga muvofiqlik, izchillik, differensiallik, matnga tayanish va natijadorlik mezonlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 26

KEYWORDS

literary education, educational task, question-task, exercise, traditional task, pragmatic task, literary text, independent activity, critical thinking, creative thinking, literary and communicative skills, competency, Bloom's Taxonomy, analysis, synthesis, evaluation

ANNOTATION

This article analyzes the role, content, essence, types, and distinctive characteristics of educational tasks in literary education. It examines traditional and pragmatic types of educational tasks, their specific differences from exercises, and their potential for developing students' knowledge, skills, abilities, and competencies. Particular attention is paid to designing tasks that foster students' independent, critical, and creative thinking, as well as their ability to read and comprehend literary texts, analyze them, express personal responses, and evaluate their content and artistic features. The methodological potential of systematizing educational tasks in literary education based on Bloom's Taxonomy is also explored. The article substantiates that the effective use of educational tasks serves as an important means of developing literary and communicative competencies. The study further demonstrates that educational tasks should be viewed not merely as tools for reinforcing knowledge, but also as methodological mechanisms that facilitate students' active engagement with literary texts. By systematizing tasks according to their content, purpose, cognitive complexity, and modes of performance, the study substantiates their potential to develop students' independent thinking, evidence-based interpretation of texts, aesthetic responses, and ability to formulate creative conclusions. Furthermore, the article highlights the didactic effectiveness of gradually moving students from simple reproductive activities toward problem-based, analytical, and creative tasks. The findings indicate the necessity of considering the principles of purposefulness, consistency, differentiation, text-based learning, and effectiveness when developing a system of tasks for literature lessons.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy va yangicha fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanishini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, adabiy ta'limda o'quvchining badiiy asarni o'qib tushunishi, asar mazmuni va g'oyasiga munosabat bildirish, mustaqil mulohaza yuritishi, tahlil va umumlashtirish asosida xulosa chiqarishi hamda o'z fikrini ravon va mazmunli ifodalashi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda o'quv topshiriqlari alohida metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Topshiriq jahon til o'qitish metodikasida o'quv maqsadiga erishishga qaratilgan o'quv jarayonining birligi bo'lib, uning tuzilishini belgilaydi, til va nutq maqsadlariga erishishda ma'lum darajada mashqdan farqlanishi bilan tavsiflanadi. O'quv topshiriqlarini o'zaro farqlash masalasi pedagogikada ham, metodikada ham bahsli mavzulardan biridir.

Adabiy ta'limda topshiriqlarning ahamiyati shundaki, ular o'quvchining egallagan bilimlarini mustahkamlash bilan cheklanib qolmay, uni mustaqil faoliyatga yo'naltiradi, badiiy matn ustida ishlash, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, baholash va ijodiy xulosa chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot darslarini samarali tashkil etishda o'quv topshiriqlarining mazmuni, turlari va didaktik xususiyatlarini aniqlash muhim metodik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Adabiy ta'limda o'quv topshiriqlaridan foydalanish, ularning mazmuni, didaktik vazifalari va o'quvchi faoliyatini tashkil etishdagi imkoniyatlari pedagogika hamda adabiyot o'qitish metodikasining muhim masalalaridan biri sifatida qaratiladi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda o'quv topshiriqlari, mustaqil ish, mashq, savol-topshiriq kabi metodik birliklarning o'zaro munosabati, ularning ta'limiy maqsadga xizmat qilish darajasi va o'quvchining bilish faoliyatiga ta'siri turli jihatlardan yoritilgan. Xususan, S. Matchonovning maktabda adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etishga bag'ishlangan tadqiqotida o'quvchining mustaqil faoliyatini shakllantirish adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi [1, 27-b.]. Ushbu yondashuv o'quv topshiriqlarini faqat o'zlashtirilgan bilimlarni tekshirish vositasi sifatida emas, balki o'quvchini mustaqil izlanishga, badiiy matn bilan faol ishlashga va o'z fikrini shakllantirishga yo'naltiruvchi metodik vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovanning adabiyot o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarida ham adabiy ta'limning maqsad va vazifalari, badiiy asarni o'rganish jarayonida o'quvchi faoliyatini tashkil etish, matnni idrok etish va tahlil qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [2, 392-b.]. Mazkur metodik qarashlardan kelib chiqib aytilish mumkinki, adabiyot darslarida topshiriqlarning samaradorligi uning

shunchaki berilishi bilan emas, balki o'quvchining badiiy matnni anglash, undagi obraz va g'oyalarni idrok etish, muallif pozitsiyasini tushunish hamda shaxsiy munosabatini asoslashiga qay darajada imkon yaratishi bilan belgilanadi.

Q.Yo'ldoshevning adabiyot o'qitish asoslariga oid ilmiy-metodik qarashlarida adabiy ta'limning o'ziga xos tabiati, badiiy asarni o'rganishda o'quvchining faol ishtirokini ta'minlash va adabiy-estetik tafakkurni rivojlantirish masalalari muhim metodik yo'nalish sifatida ko'rsatiladi [3, 36-b.]. Bu yondashuv o'quv topshiriqlarining mazmunini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki adabiyot darsidagi topshiriq o'quvchini tayyor axborotni qayta bayon qilishga emas, balki badiiy hodisani anglash, talqin qilish, qiyoslash va unga estetik munosabat bildirishga yo'naltirilgandagina adabiy ta'limning o'ziga xos maqsadlariga mos keladi.

O'quv topshiriqlarining metodik tabiatini o'rganishda G'.Hamroyevning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olim ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini tuzish metodikasini maxsus tadqiq etib, topshiriqlarning mazmuni, tuzilishi va ta'limiy maqsadga muvofiqligini masalaning muhim jihatlari sifatida ko'rsatadi [4, 157-b.]. Ushbu qarashlarida adabiy ta'limga tatbiq etganda, topshiriqning metodik qiymati uning mazmuni va shakli bilan bir qatorda, o'quvchidan qanday faoliyatni talab qilishi bilan ham belgilanadi. Masalan, "asar qahramonlarini sanang" tarzidagi topshiriq reproduktiv xarakterga ega bo'lsa, "qahramon xatti-harakatlarini baholang va fikringizni matndan dalillar bilan asoslang" shaklidagi topshiriq tahliliy va baholovchi faoliyatni yuzaga keltiradi. Demak, topshiriqning fe'l-kesimlari, talab qilinayotgan amal va kutilayotgan natija o'quvchining fikrlash darajasini belgilovchi muhim omillardir.

M.Saidovning tadqiqotida o'quv topshiriqlarining o'quvchi tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari masalasiga urg'u beriladi. Tadqiqotda o'quv topshiriqlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan [5, 25-b.]. Bu yondashuv adabiy ta'lim uchun ham muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchining faqat eslab qolish qobiliyati emas, balki tahliliy, qiyosiy, umumlashtiruvchi va tanqidiy fikrlash imkoniyatlari ham rivojlanishi lozim. Shunday ekan, adabiyot darslaridagi topshiriqlar mazmunan turli darajadagi tafakkur operatsiyalarini yuzaga keltiradigan tizim asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

G'.Hamroyevning ona tili o'qitishning samarali usullariga bag'ishlangan ishlarida ham ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchi faoliyatini faollashtiruvchi metod va topshiriqlarning ahamiyati ko'rsatib beriladi [6, 18-b.]. Bu fikr adabiy ta'lim nuqtayi nazaridan yanada keng mazmun kasb etadi. Chunki adabiyot darsida o'quvchining faolligi nafaqat bilimni o'zlashtirish, balki hissiy-estetik idrok, obrazli tafakkur va individual talqin bilan ham bog'liq. Shu bois topshiriqlar o'quvchining bilish faoliyati bilan bir qatorda, uning estetik munosabati va shaxsiy pozitsiyasini namoyon etishiga ham imkon berishi kerak.

O'.R.Roziqov va hammualliflarning didaktikaga oid tadqiqotlari o'quv topshiriqlarining umumiy pedagogik mohiyatini anglash uchun nazariy asos vazifasini bajaradi. Didaktik nuqtayi nazardan o'quv topshiriq'i o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltiruvchi, o'zlashtirish jarayonini boshqaruvchi hamda kutilayotgan ta'limiy natijaga olib boruvchi vosita sifatida qaraladi [7, 256-b.]. Shu jihatdan adabiyot darslarida topshiriqlarni alohida-alohida emas, balki ma'lum bir didaktik tizim tarkibida ko'rish zarur. Bunda topshiriqlarning oddiyanan murakkabga, reproduktiv faoliyatdan produktiv faoliyatga, bilimni qayta tiklashdan uni qo'llash va baholashga tomon izchil rivojlanishi ta'lim samaradorligini oshiradi.

O'quvchining mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish masalasi A.I.Bolotovanning tadqiqotlarida ham o'ziga xos tarzda yoritilgan. Muallif o'quvchining bilish mustaqilligini rivojlantirish vositalaridan biri sifatida maxsus tashkil etilgan topshiriqlar va ish shakllarining imkoniyatlariga e'tibor qaratadi [8, 24-b.]. Mazkur yondashuv adabiy ta'lim uchun ham ahamiyatli bo'lib, badiiy asarni mustaqil o'qish, matndan zarur ma'lumotni topish, muhim va ikkilamchi jihatlarni farqlash, savollarga dalillar asosida javob berish kabi faoliyatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

I.E.Untning ta'limni individuallashtirish va differensiallashtirishga oid qarashlari o'quv topshiriqlarini o'quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirish masalasini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'la oladi [9, 197-b.]. Adabiyot darslarida barcha o'quvchilarga bir xil mazmundagi topshiriq berish har doim ham kutilgan natijani bermasligi mumkin. Chunki o'quvchilarning badiiy matnni idrok etish darajasi, lug'at boyligi, mustaqil fikrlash qobiliyati va yozma nutq imkoniyatlari bir xil emas. Shu sababli topshiriqlarni murakkablik darajasi, bajarish usuli va

kutilayotgan natijaga ko'ra differensiallashtirish o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi.

A.N.Leontyevning psixologik tadqiqotlari esa topshiriq va o'quv faoliyati munosabatini nazariy jihatdan tushuntirish uchun muhim manba hisoblanadi. Faoliyatning psixologik tuzilishida maqsad, harakat va natijaning o'zaro bog'liqligi o'quv topshiriq'ini tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi [10, 576-b.]. Shundan kelib chiqib, adabiyot darsidagi topshiriq aniq maqsadga ega bo'lishi, o'quvchidan ma'lum harakatni talab qilishi va yakunda baholanishi mumkin bo'lgan natijaga olib kelishi lozim. Bu holat topshiriqni oddiy savoldan farqlovchi metodik xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi.

N.D.Moldavskayaning o'quvchilarning adabiy rivojlanishiga oid tadqiqotlari adabiy ta'lim jarayonida o'quvchining badiiy asarni idrok etishi, uning mazmunini anglash va adabiy tafakkurini rivojlantirish masalalarini o'rganish nuqtayi nazaridan muhimdir [11, 224-b.]. Mazkur ilmiy yo'nalishdan kelib chiqib, adabiyot darslaridagi topshiriqlarni faqat nazariy bilimlarni tekshirishga qaratish yetarli emasligi ko'rinadi. Ular o'quvchining badiiy matnni idrok etishi, obrazlar tizimini tushunishi, badiiy vositalarning vazifasini anglash va asar yuzasidan mustaqil estetik xulosa chiqarishiga xizmat qilishi zarur.

Adabiy ta'limdagi savol-topshiriqlar masalasi H.M.Suyunovning ilmiy-metodik qarashlarida yanada bevosita yoritilgan. Uning tadqiqotlari natijasida adabiyotdan savol-topshiriqlar bilan ishlash o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish bilangina cheklanmasligi, balki adabiy hodisalar va asarlar mohiyatini qiyosiy hamda teran tahlil qilish orqali umumlashma xulosalar chiqarish, ijodiy-estetik tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilishi kerakligi asoslangan. Shu bilan birga, savol-topshiriqlarni kirish, asar tahlili va yakuniy mashg'ulotlar bosqichlariga mos ravishda tashkil etish mumkinligi ko'rsatiladi.

Mazkur yondashuvning muhim jihati shundaki, unda topshiriq darsning alohida, tasodifiy elementi sifatida emas, balki ta'lim jarayonining turli bosqichlarini o'zaro bog'lovchi metodik vosita sifatida qaraladi. Biroq mavjud yondashuvlarda ko'proq savol va topshiriqlar ustida ishlash metodikasiga e'tibor qaratilib, o'quv topshiriq'ining mustaqil metodik kategoriya sifatidagi tasnifi, an'anaviy va pragmatik topshiriqlarning farqlari, shuningdek, ularni tafakkur darajalariga ko'ra tizimlashtirish masalasi yetarlicha yaxlit tizim sifatida namoyon bo'lmaydi. Bu jihat mazkur tadqiqot yo'nalishining dolzarbligini belgilaydi.

Shuningdek, mavjud metodik qarashlarda mashq va topshiriq tushunchalarining o'zaro munosabati ham muhim masala sifatida namoyon bo'ladi. Mashq ko'proq muayyan ko'nikmani shakllantirish, mustahkamlash va takrorlashga xizmat qilsa, topshiriq o'quvchini bir nechta o'zaro bog'liq faoliyatni bajarishga undashi mumkin. Mazkur farq, ayniqsa, pragmatik topshiriqlarni tashkil etishda yaqqol ko'rinadi. Topshiriq o'quvchidan nafaqat ma'lum bilimni eslashni, balki uni muayyan vaziyatda qo'llash, fikr bildirish, dalillash, muloqotga kirishish yoki amaliy natija yaratishni talab qilishi mumkin. Tadqiqot materiallarida ham topshiriqning bir nechta mashqlarni o'z ichiga olishi mumkinligi hamda zamonaviy metodikada topshiriqlarning real harakat va kommunikativ natijaga yo'naltirilishi ta'kidlangan.

Adabiy ta'lim uchun ushbu nazariy farqlash ayniqsa muhimdir. Chunki badiiy asarni o'rganishda o'quvchidan bir vaqtning o'zida o'qish, tushunish, matndan dalil topish, tahlil qilish, qiyoslash, o'z munosabatini bildirish va xulosa chiqarish talab etilishi mumkin. Bunday faoliyatlar oddiy reproduktiv mashqdan ko'ra murakkabroq bo'lib, o'quv topshiriq'ining kompleks xarakterini yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy adabiy ta'limda topshiriqlarni real hayotiy vaziyatlar, kommunikativ ehtiyojlar va mustaqil fikrlash bilan bog'lash alohida metodik ahamiyat kasb etadi.

Tahlil qilingan ilmiy va ilmiy-metodik manbalar shuni ko'rsatadiki, adabiy ta'limda o'quv topshiriqlari uch asosiy vazifani bajaradi: ta'limiy, rivojlantiruvchi va nazorat-baholovchi. Birinchidan, topshiriqlar orqali o'quvchi badiiy va nazariy materialni o'zlashtiradi; ikkinchidan, uning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, adabiy-nutqiy ko'nikmalari rivojlanadi; uchinchidan, egallangan bilim va ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi. Tadqiqot materiallarida ham topshiriqlarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish hamda ularni sinash vositasi sifatidagi ikki tomonlama funksiyasi alohida qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda adabiy ta'limda qo'llaniladigan o'quv topshiriqlarining mazmun-mohiyati, vazifasi va didaktik xususiyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, tasniflash va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yaratilgan adabiyot darsliklari va darslik-majmualaridagi savol va topshiriqlar mazmunan tahlil qilindi.

Topshiriqlarning o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish, badiiy matnni tushunish va tahlil qilish, adabiy-nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilishdagi imkoniyatlari o'rganildi. Biz ham savol, mashq hamda topshiriqlar haqida o'z kuzatishlarimizni olib bordik, adabiyot o'qitish metodikasi talablari doirasida tavsif va tasnif qildik. Kuzatishlarimiz natijasida ayrim namunalar ham yaratildi.

Adabiyot darslarida didaktik tahlilni qo'llash orqali, birinchidan, o'quvchilar qo'yilgan masalani o'rganishga tayyorlanadi, ikkinchidan, darslik va darslik-majmualardagi badiiy, ilmiy va ilmiy-metodik matnlar ustida ishlash, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish malakalarini egallay boradilar, uchinchidan, adabiy-nazariy tushunchalarni amalda qo'llash hamda o'zlari bajargan mustaqil ishlardan to'g'ri xulosalar chiqarishga o'rganadilar. Olib borilgan izlanishlar davomida savol-topshiriqlar quyidagi talablar asosida tuzilsa, samarali bo'lishiga ishonch hosil qilindi. Jumladan, savol-topshiriqlar:

- o'quvchilarni o'rganilayotgan asar yuzasidan mustaqil va atroflicha fikr-mulohaza yuritishga yo'naltirilgan bo'lishi;
- o'quvchilarning bilim saviyasi va hayotiy tajribasiga mos bo'lishi;
- badiiy dunyoqarashi va axloqiy tushunchalarini shakllantirishga xizmat qilishi;
- badiiy-estetik tafakkurini yuksaltirishga yordam berishi;
- nutqini boyitishi maqsadga muvofiqdir.

Topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda Blum taksonomiyasidan ham bevosita foydalanish lozim. Taksonomiya o'quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy-qadriyatli), psixomotor (harakatli). Shu bilan birga, agar o'quvchilarga o'z-o'zini anglash uchun taqdim etiladigan o'quv materiallari maxsus topshiriqlar bilan taqdim etilsa, ikkinchisining shakllanish samaradorligi yuqori bo'ladi. Topshiriqlarni ishlab chiqishda bilish, anglash, tahlil qilish, sintez qilish va qo'llash kabi mezonlarga tayanish kerak, o'z o'rni va navbati bilan baholash qismiga ham o'tiladi.

Natijalar

O'quv topshiriqlarining vazifasi va qo'llanilish o'rmini aniqlash jarayonida adabiyot darslarida, asosan, savol va topshiriqlardan foydalanilishi, ayniqsa, topshiriqlarning ahamiyati katta ekanligi aniqlandi. Topshiriq atamasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif berilgan: "Topshiriq 1. Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshiriqi. Topshiriq bermoq. Tergovchi ham xit bo'ldi. Axir, u bu yerga o'ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan". Ko'rinish turibdiki, har bir atama o'z mazmun-mohiyatiga ega. Ya'ni topshiriq kishining, jumladan, o'quvchining zimmasiga biror mavzuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.

Adabiy ta'limda foydalaniladigan topshiriqlar dastlab ikki turga bo'linadi:

- An'anaviy topshiriqlar;
- Pragmatik topshiriqlar.

An'anaviy topshiriqlardan ta'lim jarayonida uzoq yillardan buyon foydalanib kelinadi. Mazkur topshiriqlarning ahamiyatli ekanligini shu kungacha amal qilib kelinganidan ham bilish mumkin. Adabiyot mashg'ulotlarida hali ham an'anaviy topshiriqlar qo'llaniladi. "Shoirning tarjimai holi haqida gapirib bering", "She'rni yod oling" kabi nutqiy ko'nikmaning shakllanishiga xizmat qilmaydigan bir qancha topshiriqlar qatorida "Asardagi salbiy qahramonlarni sanab bering", "Asar qahramonlarini tavsiflang" kabi an'anaviy bo'lsa-da, nutqiy malakani rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarni uchratish mumkin. Ammo bunday o'quv topshiriqlari ko'p emas, qolaversa, muayyan mezon asosida tizimli berilmaydi.

Pragmatik topshiriqlar. Zamonaviy topshiriqlarga ehtiyoj, avvalo, ta'lim oldiga qo'yilayotgan yangi talablar bilan bog'liq. Bugun zamon mustaqil, tanqidiy, yangicha fikrlaydigan kishilarni tarbiyalash vazifasini ta'lim oldiga muhim vazifa qilib qo'yimoqda. Adabiyot o'qitish bilan bir paytning o'zida o'quvchida mulohaza, mushohada, tanqidiy munosabat bildira olish malakasini ham rivojlantirish kerak. Zamonaviy topshiriqqa bir qator rivojlantiruvchi vazifalarni bajarish mas'uliyati yuklanadi. Bunday tashqari, topshiriqlar egallangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni tekshirib ko'rish — sinash vazifasini ham bajaradi.

Bunda:

- tanlash, qiyoslash, ajratish va umumlashtirish ko'nikmalarini sinashga doir topshiriqlar;
- bilimning oshganligi va xotira mustahkamlanganligini tekshiruvchi topshiriqlar;
- ko'nikmalarni sinashga doir topshiriqlar;
- malakalarni sinashga doir topshiriqlar;
- kompetensiyani sinashga doir topshiriqlar mavjud

Jumladan, quyidagi adabiy-nutqiy ko'nikmalarning rivojlanganligi yoki shakllanganligini aniqlash bo'yicha sinov topshiriqlarini ajratish mumkin:

- badiiy matnni o'qib tushunishga doir topshiriqlar;
- matndan kalit so'zlarni topa olishga doir topshiriqlar;
- o'qish savodxonligini tekshirishga doir topshiriqlar;
- matndagi tagma'nolarni tushunganligini tekshirishga doir topshiriqlar.

Ta'kidlangani kabi topshiriqlardan dastlab bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, keyin o'zlashtirilgan bilim va egallangan ko'nikma hamda malakalarni sinash vositasi sifatida ham foydalaniladi. Biroq pedagogika fanlari doktori, professor Uman Arkadiy Ilich ta'lim topshiriqlari orasida ogohlantiruvchi ta'sirga ega bo'lmaganlari ham borligini ta'kidlaydi. Ular ta'lim qobiliyatlarini va ko'nikmalarini takomillashtirish uchun o'xshashlik bilan amalga oshiriladigan reproduktiv vazifalardir. O'quv faoliyatining tabiati bo'yicha ikkinchi guruh vazifalari quyidagilardan iborat: o'quv ma'lumotlariga vositachilik qiluvchi o'quv topshiriqlari; o'quv materiallari bilan o'quvchining ishini boshqaradigan o'quv topshiriqlari:

- kuzatuv uchun topshiriqlar;
- matn bilan ishlash topshiriqlari;
- qobiliyat va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar.

O'quv ma'lumotlariga vositachilik qiladigan o'quv topshiriqlari to'g'ridan-to'g'ri o'quv materiallarini o'z ichiga oladi yoki uni qayerdan olish mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu turdagi vazifalar o'qituvchining tushuntirishini qisman o'zgartiradi va o'quv materialining dastlabki idrokiga yoki uni mustaqil o'rganishga mo'ljallangan. O'quv materiallari bilan o'quvchilarning ishini boshqaradigan o'quv vazifalari o'quvchini tushunish, o'quv ma'lumotlarini tizimlashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, taqqoslash, xulosalar va umumlashtirishni amalga oshirishga yo'naltiradi hamda yangi materialni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi.

Blum taksonomiyasi asosida topshiriqlar

Adabiy ta'limda topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda Blum taksonomiyasidan foydalanish muhim metodik imkoniyat beradi.

1. Adabiy ta'limda bilishga doir topshiriqlar. Bu daraja o'quv materiallarining asosiy unsurlarini eslash, tushunib yetish va qayta tiklashga yo'naltirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Bu darajadagi maqsadga uch toifadagi bilimlarni shakllantirishni kiritish mumkin:

- xususiyatli bilimlar, masalan, badiiy matndagi muddatlar, faktlar, sonlar, atamalar, nomlar;
- mulohazali bilimlar, masalan, yo'nalishlar, mezonlar, sinflar, toifalar;
- abstrakt bilimlar, masalan, qoidalar, aksiomalar, nazariyalar, tuzilmalar.

2. Adabiy ta'limda anglashga doir topshiriqlar. Bu daraja o'zida uch toifadagi o'quv maqsadlarini mujassamlashtiradi:

- ko'chirish — yangi vaziyatlarni o'rganishda bilimlarni qo'llash ko'nikmasi;
- interpretatsiya — qo'lga kiritilgan natijani og'zaki tushuntirib berish;
- ekstrapolyatsiya — egallangan bilimlarni o'xshash vaziyatlarga ko'chirish ko'nikmasi.

3. Adabiy ta'limda qo'llashga doir topshiriqlar. Bu daraja, asosan, o'quvchida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Ya'ni bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi:

- tushunchalarni qo'llash;
- qoidalarini qo'llash;
- nazariyalarni qo'llash va hokazo.

4. Adabiy ta'limda tahlilga doir topshiriqlar. Bu daraja o'quv maqsadlarini quyidagi toifalar bo'yicha aniqlashtiradi:

- unsurlar tahlili — matn qismlarga bo'lish, ajratish;
- munosabatlar tahlili — abzaslar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish;
- tamoyillar tahlili — birliklarni tizimlashtirish.

5. Adabiy ta'limda sintezlashga doir topshiriqlar. Bu daraja "alohida qismlardan yaxlitini tuzish" ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha o'quv maqsadlarini belgilaydi:

- g'oyalarni sintezi — muammo yechimi bo'yicha bildirilgan g'oyalarning umumlashishi;
- mulohazalar sintezi — nutqiy ko'nikmalarning shakllanganlik darajalari va mezonlarini ishlab chiqish;
- tuzilma sintezi — matn ko'rinishi, chizmasi, til birliklari yordamida nutqning ifodalanishi.

6. Adabiy ta'limda baholashga doir topshiriqlar. Bunday topshiriqlar muayyan maqsad uchun u yoki bu o'quv materiallarining ahamiyatini baholash ko'nikmalarini nazarda tutadi. O'quvchi mulohazasi aniq mezonlarga tayanishi zarur. Baholash sifatida ichki bilish va ishonchlar — dalillash, mantiq hamda tashqi mezonlar — standartlar,

qoida va me'yorlarga tayaniladi. Mezonlarni o'quvchining o'zi aniqlashi yoki tashqi tomondan berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar oldingi

mashg'ulotlar bo'yicha o'quv natijalariga erishganligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

1-jadval

Blum taksonomiyasi asosida adabiy ta'limda topshiriqlar tizimi

№	Blum taksonomiyasi darajasi	Topshiriqning asosiy maqsadi	Topshiriqning mazmuni	Adabiy ta'limdagi namuna
1	Bilish	O'quv materialining asosiy unsurlarini eslash, tushunish va qayta tiklash	Xususiyatli, mulohazali va abstrakt bilimlarni o'zlashtirish	Asar muallifi, janri, yaratilgan davri, qahramonlar nomi va asosiy voqealarni aniqlash
2	Anglash	O'zlashtirilgan bilimni tushunish va uni yangi vaziyatlarga ko'chirish	Ko'chirish, interpretatsiya va ekstrapolyatsiya	Badiiy asardagi voqeani o'z so'zlari bilan izohlash, qahramon xatti-harakatiga munosabat bildirish
3	Qo'llash	Bilim va nazariy tushunchalarni amaliy faoliyatda qo'llash	Tushunchalar, qoidalar va nazariy bilimlardan foydalanish	Badiiy tasvir vositalarini matndan topish va ularning vazifasini izohlash
4	Tahlil	Badiiy matnning tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash	Unsurlar, munosabatlar va tamoyillar tahlili	Matnni qismlarga ajratish, obrazlar o'rtasidagi munosabatni aniqlash, voqealar rivojini tahlil qilish
5	Sintez	Alohida qismlardan yaxlit fikr, xulosa yoki yangi tuzilma yaratish	G'oyalar, mulohazalar va tuzilma sintezi	Asar g'oyasini umumlashtirish, muammo yechimi bo'yicha o'z fikrini ishlab chiqish, matn rejasini tuzish
6	Baholash	O'quv materiali, obraz yoki badiiy hodisaning ahamiyatini mezonlar asosida baholash	Dalillash, mantiqiy xulosa chiqarish, standart va mezonlarga tayanish	Qahramon xatti-harakatini baholash, muallif pozitsiyasiga munosabat bildirish, o'z fikrini dalillar bilan asoslash

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot o'qitishni samarali bo'lishiga erishish uchun amaldagi o'quv materiallarini bu boradagi muammolarni inobatga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Muhimi shuki, o'quvchida, avvalo, o'quv soati uchun ajratilgan har bir daqiqadan, darsliklarda berilayotgan har bir ma'lumotdan unumli foydalanish ko'nikma hamda malakasini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi. O'quvchiga taqdim etilayotgan o'quv materiallari birgina muammo yoki mavzu doirasidagina emas, balki birdaniga o'quvchida pragmatik ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qila olsa, ko'zlangan maqsadga erishish oson bo'ladi. Masalan, o'quvchiga badiiy asarni o'qib tushunish va munosabat bildirish olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qila oladigan amaliy jihatlarini o'rgatish lozim. O'quvchiga adabiyot o'qitishga doir biror topshiriq berishda adabiy-nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish barobarida imkon qadar ulara ravon nutq, mazmunli muloqot malakasini, mustaqil ishlay olish ko'nikmasini shakllantirishga erishish darsning samaradorligini ta'minlaydi. Shu o'rinda o'quvchiga tahlil uchun berilgan mashq yoki topshiriq mazmuni oddiy xabar emas, balki hikmatlar, iboralar, tasviriy ifodalar, yashash qoidalariga teng bo'lgan xalq maqollari, xalq dostonlaridan zarur parchalar shaklida bo'lsa, bir paytning o'zida darsning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy, ham rivojlantiruvchi maqsadlari amalga oshadi.

Muhokama

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga turli yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator yangi tipdagi mashq va topshiriqlar amaliyotda sinab ko'rilmogda. Jumladan, I.Davronovning algoritmik mashqlar haqidagi fikr-mulohazalari bu boradagi yangicha yondashuvlardan biridir. Biroq ona tili o'qitishda shunday mavzular bo'ladiki, ularning ta'limida didaktik o'yinlardan ko'ra an'anaviy amaliy ishlar orqali kerakli natijaga erishish mumkin bo'ladi. Ta'kidlash kerakki, gapirishning yozishga va, aksincha, yozuvning og'zaki nutqqa ta'siri bo'lishi tabiiy. Fan-texnika qanchalik shiddat bilan rivojlanmasin, zamonu zaminlar o'zgarmasin, baribir insoniyat uchun yozma nutq masalasi hech qachon o'z mohiyatini yo'qotmaydi. Shunday ekan, bu masala hamisha ta'limning birinchi darajali muammosi bo'lib qolaveradi. O'quvchilar badiiy asar imkoniyatlaridan mahorat bilan samarali foydalansalar, o'z fikrlarini ta'sirchan, tushunarli bayon qila olsalar, ajdodlardan qolgan boy ilmiy, badiiy merosni chuqur anglash darajasida o'z tilini bilsalar, adabiy ta'lim o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. Buning uchun adabiyot darslarida foydalaniladigan o'quv materiallari nihoyatda puxta ishlanishi, ko'nikmalarni kompleks tarzda shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bir paytning o'zida ham o'qib tushunish, ham munosabat bildirish, ham so'z boyligini oshirish, qolaversa, mantiqiy fikrlashga yo'naltirishga sharoit yaratish zarurati takrorlash jarayonini taqozo etadi, bu esa nutqiy mahoratni oshiradi.

Adabiy ta'limda o'quv topshiriqlarining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ularning o'quvchidan talab qiladigan fikrlash faoliyati bilan bog'liqligidir. Bir xil mazmundagi badiiy matn turli

darajadagi topshiriqlar vositasida o'rganilganda o'quvchining matnga munosabati ham, undan oladigan ta'limiy natijasi ham sezilarli darajada farqlanadi. Masalan, asardagi voqealarni qayta aytib berishga qaratilgan topshiriq o'quvchining xotirasi va reproduktiv faoliyatini ishga solsa, qahramonning qarorini baholash, uning xatti-harakatiga sabab bo'lgan omillarni aniqlash yoki muallif pozitsiyasiga munosabat bildirishga qaratilgan topshiriq yuqori darajadagi tafakkur jarayonlarini faollashtiradi. Shu sababli adabiyot darslarida topshiriqlarning faqat soniga emas, balki kognitiv murakkabligi va o'quvchi faoliyatining xarakteriga e'tibor qaratish lozim.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat kuzatiladiki, badiiy matn asosida tuziladigan topshiriqlar bir vaqtning o'zida bir nechta kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatiga ega. Xususan, matndan dalil topish o'qish savodxonligini, topilgan dalilni sharhlash analitik fikrlashni, o'z munosabatini yozma yoki og'zaki ifodalash kommunikativ kompetensiyani, turli qarashlarni qiyoslash esa tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. Demak, samarali topshiriq alohida bir ko'nikmani emas, balki o'zaro bog'liq ko'nikmalar majmuini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Bu jihat o'quv topshiriqlarini adabiy-nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning kompleks vositasi sifatida baholash imkonini beradi.

Badiiy asarni o'rganishda topshiriqning ochiq yoki yopiq shaklda tuzilishi ham o'quvchi faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Yopiq xarakterdagi topshiriqlarda javob variantlari oldindan belgilangan bo'lib, ular ko'proq bilimni aniqlash va nazorat qilishga qulaylik yaratadi. Ochiq topshiriqlarda esa o'quvchi o'z javobini mustaqil shakllantiradi, dalillar tanlaydi va xulosasini asoslaydi. Ayniqsa, adabiyot fanining estetik va interpretativ tabiati hisobga olinsa, ochiq topshiriqlarning metodik imkoniyati kengroq ekanligi ko'rinadi. Chunki badiiy matnni idrok etishda barcha o'quvchilar uchun yagona talqin mavjud bo'lmasligi mumkin; muhim jihat o'quvchining o'z fikrini matn bilan asoslay olishidir.

Shu nuqtayi nazardan, adabiyot darslarida "to'g'ri javobni topish" tamoyilidan "o'z fikrini asoslash" tamoyiliga bosqichma-bosqich o'tish maqsadga muvofiq. Masalan, "Asarning bosh qahramoni kim?" degan savol muayyan fakti aniqlashga xizmat qiladi. "Qahramonning qaysi xatti-harakati uning xarakterini ochib beradi?" shaklidagi topshiriq esa matnni tahlil qilishni talab qiladi. "Qahramonning qarorini siz qanday baholaysiz? Javobingizni asardan dalillar bilan asoslang" tarzidagi topshiriq o'quvchini mustaqil hukm chiqarish va dalillashga olib keladi. Shu tariqa topshiriqning shakli o'zgarishi uning didaktik darajasini ham o'zgartiradi.

O'quv topshiriqlarini tuzishda matnning o'zi asosiy didaktik manba sifatida olinishi ham muhim. Badiiy asar haqida umumiy ma'lumot beruvchi topshiriqlardan tashqari, bevosita matnning leksik, obrazli, kompozitsion va g'oyaviy qatlamlarini ochishga xizmat qiladigan topshiriqlar tizimini yaratish o'quvchining asar bilan faol munosabatini ta'minlaydi. Bunda "matndan toping", "matn asosida izohlang", "qiyoslang", "dalil keltiring", "munosabat bildiring", "xulosa chiqaring"

kabi faoliyatga yo'naltiruvchi ko'rsatmalar topshiriqning bajarilish mexanizmini aniq belgilab beradi.

Muhokama natijalari topshiriqlarning murakkablik darajasini o'quvchilarning yosh va tayyorgarlik xususiyatlariga moslashtirish zarurligini ham ko'rsatadi. Boshlang'ich bosqichlarda matn mazmunini anglash va muhim jihatlarini ajratishga qaratilgan topshiriqlar ustunlik qilishi mumkin. Keyingi bosqichlarda esa qiyoslash, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, obrazlar tizimini tahlil qilish, muallif pozitsiyasini anglash va mustaqil baholashga yo'naltirilgan topshiriqlarning ulushi oshirilishi lozim. Bunday izchillik o'quvchini birdaniga murakkab tahliliy faoliyatga jalb etmasdan, uni bosqichma-bosqich yuqori darajadagi fikrlashga olib keladi.

Shuningdek, topshiriqlarning kommunikativ yo'nalganligi adabiy ta'lim samaradorligining muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchi o'z javobini faqat yozma shaklda ifodalash bilan cheklanmay, juftlikda yoki guruhda muhokama qilishi, turli talqinlarni qiyoslashi, o'z nuqtayi nazarini himoya qilishi va qarama-qarshi fikrga munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bunday topshiriqlar adabiy matnni o'rganishni passiv qabul qilish jarayonidan faol muloqot jarayoniga aylantiradi.

Yana bir muhim jihat topshiriq natijasini baholash mezonlarining oldindan aniq belgilanishidir. Ayniqsa, ochiq va ijodiy topshiriqlarda o'quvchining javobini faqat "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" tarzida baholash maqsadga muvofiq emas. Javobning matnga tayanishi, dalillarning asoslanganligi, fikrning izchilligi, mustaqilligi, nutqiy ifodaning aniqligi kabi mezonlar hisobga olinishi kerak. Bunday yondashuv baholashni nazorat vositasidan o'quvchining keyingi rivojlanish yo'nalishini ko'rsatuvchi pedagogik mexanizmga aylantiradi.

Xulosa

Adabiy ta'limda o'quv topshiriqlari ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va

kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda muhim metodik vosita vazifasini bajaradi. Tadqiqot natijalari topshiriq va mashq tushunchalarini farqlash zarurligini ko'rsatdi. Mashq, asosan, muayyan ko'nikmani shakllantirish va takrorlashga yo'naltirila, topshiriq bir nechta faoliyat turini qamrab olib, o'quvchini mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muloqotga kirishish va amaliy natijaga erishishga undaydi.

Adabiy ta'limda o'quv topshiriqlarini an'anaviy va pragmatik turlarga ajratish ularning metodik xususiyatlarini aniqlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. An'anaviy topshiriqlar o'quv materialini eslash, qayta tiklash va tavsiflashga yo'naltirilishi mumkin. Pragmatik topshiriqlar esa o'quvchining bilim va ko'nikmalarini real yoki real hayotga yaqin vaziyatlarda qo'llashini ta'minlaydi. Shuningdek, o'quv topshiriqlari bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni tekshirish hamda baholash vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Badiiy matnni o'qib tushunish, kalit so'zlarni topish, o'qish savodxonligini aniqlash, tagma'noni anglash, qiyoslash, umumlashtirish va munosabat bildirishga yo'naltirilgan topshiriqlar o'quvchilarning adabiy-nutqiy faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Blum taksonomiyasi asosida topshiriqlarni **bilish, anglash, qo'llash, tahlil, sintez va baholash** darajalarida ishlab chiqish o'quvchilarning fikrlash faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, yuqori darajadagi tahliliy, sintezlovchi va baholovchi topshiriqlar o'quvchining mustaqil va tanqidiy fikrlashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shunday qilib, adabiy ta'limda o'quv topshiriqlarini tasodifiy yoki faqat an'anaviy shaklda emas, balki aniq didaktik maqsad, o'quvchi faoliyati va kutilayotgan natijaga asoslangan tizim sifatida ishlab chiqish zarur. Bunday yondashuv o'quvchilarning badiiy asarni chuqur anglashiga, mustaqil fikr yuritishiga, o'z munosabatini asoslashiga, raven va mazmunli nutq tuzishiga hamda adabiy-nutqiy ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Matchonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 27 b.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 392 b.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning asoslari. // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: ToshDO'TAU, 2018. – B. 36.
4. Hamroyev G'. Ona tilidan o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi. – Toshkent: Donishman ziyosi, 2021. – 157 b.
5. Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nomzodi diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2000. – 25 b.

6. Hamroev G'. Ona tili o'qitishning samarali usullari. – Toshkent: Bayoz, 2018. – 18 b.
7. Rozikov O'. R. va boshq. Didaktika. – Toshkent: Fan, 1997. – 256 b.
8. Болотова А. И. Рабочая тетрадь как средство развития познавательной самостоятельности при обучении математике младшего школьника: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02. – Москва, 2012. – 24 с.
9. Унт И. Э. Индивидуализация и дифференциация обучения. – Москва: Педагогика, 1990. – 197 с.
10. Леонтьев А. Н. Проблемы развития психики. – Москва: Педагогика, 1972. – 576 с.
11. Молдавская Н. Д. Литературное развитие школьников в процессе обучения. – Москва: Педагогика, 1976. – 224 с.